ISSN 218-8088

XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI

"XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI" JURNALI

Muassis:
"Xalq ta'limi" jurnali tahririyati DUK

PUBLIC EDUCATION BULLETIN

"PUBLIC EDUCATION BULLETIN" JOURNAL

2023

2-son

(Mart-Aprel)

Jurnal 2015-yildan chiqa boshlagan

(O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2014-yil 17-maydagi 137-sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan)

TOSHKENT

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi elektron shahodatnomaning davlat namunasini tasdiqlash haqida”gi qarori ijrosi to‘g‘risidagi **2023-yil 3-fevral, 15-son buyrug‘i**.....4

2023-yilda umumta’lim fanlaridan onlayn olimpiadalarni tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risidagi **2023-yil 15-fevral, 25-son buyrug‘i**.....7

O‘quvchilar o‘rtasida Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro kimyo olimpiadasiga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish to‘g‘risidagi **2023-yil 28-fevral, 35-son buyrug‘i** 9

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosi haqidagi **2023-yil 6-mart, 43-son buyrug‘i**.....12

2022-2023-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risidagi **2023-yil 6-mart, 46-son buyrug‘i**.....16

Qishloq hududlarida xorijiy tillarni o‘qitish faoliyatini tashkil etish uchun nodavlat ta’lim tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi **2023-yil 14-mart, 55-son buyrug‘i**.....19

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari tuzilmasidagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i va fan metodistlarini tanlab olish to‘g‘risidagi **2023-yil 15-mart, 61-son buyrug‘i**.....22

“Zamonaviy maktab”larga qo‘yiladigan talablarni takomillashtirish hamda ular asosida umumta’lim muassasalarini baholash to‘g‘risidagi **2023-yil 25-mart 66-son buyrug‘i**.....34

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosi haqidagi **2023-yil 28-mart, 68-son buyrug‘i**.....111

KIRISH

Mustaqillik yillarida umumta'lim maktablari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ta'lim tizimini yaratishda yangi qadamlar qo'yildi. Ta'lim muassasalarining yangicha qiyofadagi, barcha qulayliklarga ega zamonaviy binolar shaharlardagina emas, yurtimizning chekka qishloqlarida ham qad rostladi. Endilikda mamlakatimiz rahbarining o'qituvchilarga qo'ygan eng asosiy talabi – yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, ilm va ma'rifatli qilib voyaga yetkazishdir. Pedagog xodimlarning tajriba va malakasini oshirish, qayta tayyorlash, ularning bilimlarini oshirish uchun joylarda keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Prezidentimiz pedagoglarga qulay ijtimoiy shart-sharoitlar yaratishga alohida g'amxo'rlik ko'rsatmoqda. Mashg'ulotlarni zamonaviy, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, har bir mavzu g'oya va maqsadini o'quvchilar ongiga singdirish o'qituvchining oldiga qo'yilgan asosiy vazifadir. Buning uchun o'qituvchi o'qish va izlanishni kanda qilmasligi lozim.

Zero, mamlakatimizni ravnaq toptirishda yoshlar muhim kuch bo'lishi, o'z g'oya va tashabbuslari bilan turli sohalardagi islohotlarda faol ishtirok etishlari kerak. Bu borada yoshlar uchun barcha zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Shunga binoan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi elektron shahodatnomaning davlat namunasini tasdiqlash haqida"gi qarori ijrosi to'g'risida O'zbekıston Respublıkası maktabgacha va maktab ta'lımı vazırının 2023-yil 3-fevral 15-sonli buyrug'i qabul qilindi.

Buyruqda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi elektron shahodatnomaning davlat namunasini tasdiqlash haqida" 2023-yil 31-yanvardagi 44-son qarori ijrosini ta'minlash hamda ta'lim tizimida "Elektron shahodatnoma" axborot tizimini joriy etish maqsad qilindi.

Shuningdek, 2022-2023-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida O'zbekıston Respublıkası maktabgacha va maktab ta'lımı vazırının 2023-yil 6-mart 46-soni buyrug'i qabul qilindi.

Unda Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2022-2023-o'quv yilida o'quvchilarning yakuniy nazorat imtihonlarini tashkil etish va o'tkazishi aytib o'tilgan**.**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi elektron shahodatnomaning davlat namunasini tasdiqlash haqida”gi qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi elektron shahodatnomaning davlat namunasini tasdiqlash haqida” 2023-yil 31-yanvardagi 44-son qarori ijrosini ta’minlash hamda ta’lim tizimida “Elektron shahodatnoma” axborot tizimini joriy etish maqsadida buyuraman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-yanvardagi 44-son qarori (keyingi o‘rinlarda — qaror) vazir o‘rinbosarlari, departament, boshqarma va bo‘limlar, hududiy boshqarmalar boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi muassasalar va tashkilotlar direktorlari tomonidan rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan:

Tayanch o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi elektron shahodatnomaning davlat namunasi va uning tavsifi;

Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi elektron shahodatnomaning davlat namunasi va uning tavsifi;

Psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktabni (maktab-internat) tamomlaganlik to‘g‘risidagi elektron sertifikat namunasi va uning tavsifi;

Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida elektron shahodatnomalarni berish tartibi haqidagi nizom (keyingi o‘rinlarda - nizom) tasdiqlanganligi;

Vazirlikning 2021-yil 12-maydagi “Xalq ta’limi tizimini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi 152-son buyrug‘iga muvofiq “Elektron shahodatnoma” axborot tizimi (keyingi o‘rinlarda - axborot tizimi) ishlab chiqilayotganligi;

axborot tizimini ishga tushirish va keyinchalik qo‘llab-quvvatlash Maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Ta’limni raqamlashtirish boshqarmasi (S.Raximboyev), Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi (F.Mirbabayev)ga:

bir oy muddatda Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda axborot tizimini texnik talablar asosida ishlab chiqish bosqichlarini yakunlash va joriy etish. Bunda, bitiruvchilarning so‘nggi 6 yillik bahosini axborot tizimiga kiritishni inobatga olish;

2023-yil 20-aprelga qadar axborot tizimini “Elektron hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali Bilim va malakalarni baholash agentligining “ABITUR” maxsus elektron dasturiga integratsiya qilish;

axborot tizimidan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnoma ishlab chiqish;

axborot tizimiga doimiy ravishda texnik jihatdan xizmat ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlash vazifalari yuklatilsin.

4. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E.Murodov) tasarrufida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari bo‘lgan vazirliklar va idoralar bilan birgalikda axborot tizimiga bitiruvchilar haqidagi ma’lumotlarni kiritib borilishini muvofiqlashtirib borsin.

5. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalariga:

2022-2023-o‘quv yili yakunidan boshlab, hududidagi davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarida axborot tizimiga bitiruvchilar haqidagi ma’lumotlarni to‘g‘ri va haqqoniy kiritib borilishini ta’minlash va nazorat qilish;

nizomga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi elektron shahodatnomaga buyurtma berish, ularni shakllantirish va bitiruvchilarga berilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatish;

qarorning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka va ota-onalarga tushuntirib borish vazifalari yuklatilsin.

6. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E.Murodov), Yuridik bo‘lim (M.Miraxmedov) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

7. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo‘limi (L.Rustamova) qarorning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirib borish maqsadida muntazam ravishda ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar hamda vazirlikning veb-sayti orqali yoritib borsin.

8. Devonxona (D.Isxakova) o‘rnatilgan tartibda ushbu buyruqni vazirlikning markaziy apparati, departament, boshqarma va bo‘lim-

lar, hududiy boshqarmalar hamda vazirlik tasarrufidagi muassasalar va tashkilotlarga yetkazilishini ta’minlasin.

9. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan vazirlikning 2019-yil 17-maydagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilariga yangi namunadagi ta’lim to‘g‘risidagi rasmiy hujjatlarni joriy etish to‘g‘risida”gi 170-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 3-fevral,
15-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

2023-yilda umumta’lim fanlaridan onlayn olimpiadalarni tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son hamda Vazirlar Mahkamasining “Iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida fan olimpiadalarini o‘tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘quvchilarning bilimlarini sinovdan o‘tkazish, asosiy olimpiadalarga tayyorgarlik ko‘rish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida o‘tkaziladigan onlayn olimpiadalar Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari, akademik litsey va kasb-hunar maktablari o‘quvchilari o‘rtasida fan olimpiadalarini tashkil etish, o‘tkazish hamda xalqaro olimpiadalar ishtirokchilarini saralash va g‘oliblarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom”ning 5-bobida belgilangan tartib asosida tashkil etilishi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

2023-yilda umumta’lim fanlaridan onlayn olimpiadalarni o‘tkazish ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

onlayn olimpiadalar uchun ishlab chiqilgan nazorat materiallari mualliflarining mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha xarajatlar smetasi 2-ilovaga muvofiq;

onlayn olimpiadalarni tashkil etish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita a’zolari ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Fan olimpiadalari bo‘yicha iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash departamenti (U.Raxmonov)ga:

onlayn olimpiadalarni me’yoriy hujjatlar talablari asosida to‘g‘ri tashkil etish va o‘tkazish;

mazkur buyruqning 1-ilovasidagi onlayn olimpiadalarni o‘tkazish ro‘yxatiga muvofiq fanlardan malakali mutaxassislarni jalb etgan holda olimpiada materiallarini tuzuvchi mualliflar ro‘yxatini shakllantirish hamda ular tomonidan tuzilgan topshiriqlarni belgilangan tartibda qabul qilib olish;

test topshiriqlari tuzuvchilari va mualliflari bajargan ishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tegishli vazir o‘rinbosaridan tasdiqlagan holda, to‘lovlarni amalga oshirish maqsadida Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasiga taqdim qilish;

onlayn olimpiadalar jarayonlarini nazorat qilish bo‘yicha mas’ul xodimlarni kerakli materiallar bilan belgilangan muddatlarda ta’minlanishini nazorat qilish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur buyruqning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan sarf-xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan 2023-yilda o‘tkaziladigan markazlashgan tadbirlar rejasida nazarda tutilgan tegishli mablag‘lar doirasida amalga oshirilsin.

5. Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (J.Shokirov) taqdim qilingan ma’lumotlar asosida o‘rnatilgan tartibda onlayn olimpiada uchun tuzilgan test topshiriqlari tuzuvchi va mualliflarga to‘lovlarni amalga oshirsin.

6. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo‘limi (L.Rustamova) o‘tkaziladigan olimpiada jarayonlarini ommaviy axborot vositalari hamda vazirlikning www.uzedu.uz rasmiy veb-sayti orqali yoritib borsin.

Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 15-fevral,
25-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘quvchilar o‘rtasida Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro kimyo olimpiadasiga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to‘g‘risida” 2022-yil 25-avgustdagi PQ-361-son hamda “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-fevraldagi bilan Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini nishonlash bo‘yicha tashkiliy qo‘mitaning O‘quvchilar o‘rtasida Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro kimyo olimpiadasiga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish to‘g‘risida 17-sonli yig‘ilish bayonida (keying o‘rinlarda - bayon) belgilangan vazifalar rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Bayon bilan:

o‘quvchilar o‘rtasida xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro kimyo olimpiadasini (keyingi o‘rinlarda - Xalqaro olimpiada) 2023-yil 11-17-iyun kunlari Xiva shahrida o‘tkazishga, Xalqaro olimpiada jarayonlarini Xiva shahridagi “Farovon Khiva Hotel” mehmonxonasining konferens zalida tashkil etishga, Xalqaro olimpiada vaqtida hakamlar hay’ati a’zolarini Xiva shahridagi “Farovon Khiva Hotel” mehmonxonasiga, xalqaro olimpiada ishtirokchilarini Xiva shahridagi “Hotel Asia Khiva” mehmonxonasiga joylashtirishga rozilik berilganligi hamda bu bilan bog‘liq sarf-xarajatlar Xorazm viloyati hokimligi tomonidan amalga oshirilishi;

Xalqaro olimpiadani tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom, Xalqaro olimpiadaga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi, xorijiy ishtirokchilar va mehmonlarning O‘zbekiston hududida bo‘lishi va harakatlanish dasturi, Xalqaro olimpiadani tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha Res-

publika tashkiliy qo‘mitasi tarkibi, Xalqaro olimpiadaga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bilan bog‘liq barcha xarajatlar smetasi tasdiqlanganligi,

xalqaro olimpiada ishtirokchilarining O‘zbekistonga kelish va ketish xarajatlari yuboruvchi davlat hisobidan qoplanishi ko‘zda tutilganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

Xalqaro olimpiadaning o‘tishini tashkiliy jihatdan muvofiqlashtirish va Xorazm viloyati hokimligi bilan hamkorlikda ishni tashkil qilish bo‘yicha ishchi guruhi (keyingi o‘rinlarda - ishchi guruhi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Xalqaro olimpiadaga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha Yo‘l xaritasi 2-ilovaga muvofiq;

Xalqaro kimyo olimpiadaga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar smetasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ishchi guruhi (U.Sharifxodjayev)ga:

Xorazm viloyati hokimligi mas’ullari bilan xalqaro olimpiada o‘tkazilishi bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilish;

Xalqaro olimpiada o‘tkaziladigan joylarni tayyorlash;

Xalqaro olimpiadaning tantanali ochilish va yopilishi marosimlari uchun maxsus ishlab chiqilgan ssenariy va dastur asosida tashkil etish yuzasidan tegishli tavsiyalarni berish;

Xalqaro olimpiada ishtirokchilari uchun beydjiklar, esdalik sovg‘alarini tayyorlash yuzasudan tegishli tavsiyalar berish;

zaruratga ko‘ra tegishli mutaxassislarni Xorazm viloyatiga xizmat safariga yuborish yuzasudan vazirlik rahbariyatiga taklif kiritish vazifalari yuklatilsin.

5. Davlat xaridlari bo‘limi (Sh.Yeshnazarov) Xalqaro olimpiadani tashkil etish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq xaridlarni amalga oshirsin.

6. Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (J.Shokirov) Xalqaro olimpiadani tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni vazirlikning 2023-yil uchun tasdiqlangan markazlashgan tadbirlar mablag‘lari hisobidan, tuzilgan shartnomalarga muvofiq o‘rnatilgan tartibda amalga oshirsin.

7. Fan olimpiadalarini o‘tkazish va iqtidorli o‘quvchilarni saralash boshqarmasi (U.Raxmonov) xarid qilingan tovar-moddiy boyliklarni qabul qilish va Xalqaro olimpiada yakunlangandan so‘ng 10 kun

ichida tadbir bo‘yicha tegishli hisobotlarni Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasiga topshirish vazifasi yuklansin.

8. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo‘limi (L.Rustamova) Xalqaro olimpiada jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish va vazirlikning veb-saytiga joylashtirish choralarini ko‘rsin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil **28**-fevral,
35-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosi haqida

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarni “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalq manfaatlari yo‘lida izchil davom ettirish, ta’lim sifatini ilg‘or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmoni (keyingi o‘rinlarda - Farmon) vazir o‘rinbosarlari, departament, boshqarma va bo‘limlar, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar direktorlari tomonidan rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi (keyingi o‘rinlarda - Davlat dasturi) bo‘yicha Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining topshiriqlar dasturi **1-ilovaga muvofiq;**

Davlat dasturiga muvofiq Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish bo‘yicha reja-grafik **2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

3. Strategik rivojlantirish va xalqaro reytinglar boshqarmasi (L.Xo‘jaqulov) Davlat xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni muvofiqlashtirish bo‘limi (F.Kushnazarov) bilan hamkorlikda **2023-yil 1-iyulga qadar** ta’lim yo‘nalishida **“Aholi va tadbirkorlarga servis sifatini oshirish”** chora-tadbirlarini ishlab chiqsin va tasdiqlashga kiritsin.

4. Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi (Sh.Muxamedov), AKTni joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi (R.Musurmonov), Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev), Davlat xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni muvofiqlashtirish bo‘limi (F.Kushnazarov), Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z.Togayeva), O‘quv jarayo-

nini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish boshqarmasi (D.Kuchkarova), Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash boshqarmasi (D.Sobirova) **15 kun muddatda** tizimda **masofadan turib**, shu jumladan, **mobil ilovalar orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini ko'paytirish**, undiriladigan **to'lovlar miqdorini kamaytirish**, talab qilinadigan **ortiqcha hujjatlarni bekor qilish**, ko'rib chiqish **jarayonlari** va **muddatlarini keskin qisqartirish**, shaffoflikni oshirish, **aholi va tadbirkorlar bilan doimiy muloqot** maydonchalarini tashkil etish, xodimlarning **muomala madaniyatini yuksaltirish, tezkor** va **sifatli xizmat ko'rsatishga o'qitish** bo'yicha tadbirlar dasturini tasdiqlab, **aholi** va **tadbirkorlarga** e'lon qilsin.

5. Ta'lim sifatini oshirish, sohani ilg'or xorijiy tajriba asosida isloh qilish maqsadida:

a) Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish boshqarmasi O'quvchilarni kasbga yo'naltirish boshqarmasi bilan hamkorlikda **2023-yil 1-sentabrdan boshlab** har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiy o'rta ta'lim muassasasida o'quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish amaliyotini bosqichma-bosqich yo'lga qo'ysin;

b) O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva) **2023-2024 o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich** umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoa bo'lib ishlash, tadqiqotchilik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan **ta'lim dasturlarini** amaliyotga kiritsin.

Bunda:

umumiy o'rta ta'lim muassasalarining **1-4-smflarida** o'quvchilarni ilg'or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan **darsliklar** bo'yicha o'qitish;

5-9-sinflarda o'quvchilarga umumta'lim fanlaridan **tayanch bilimlar** berish;

10-11-sinf o'quvchilarining **qiziqish va qobiliyatiga mos bo'lgan** ixtisoslashgan dasturlar asosida bilim berish amaliyotini joriy qilish;

6. Soha infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (Q.Oqilov, H. Turaxodjaev) 2023-2024 o'quv yilidan boshlab respublikaning barcha viloyatlari va Toshkent shahrida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ovqat bilan ta'minlashni yo'lga qo'ysin.

Bunda, ovqat turlari o‘quvchilarning yoshi va sog‘lig‘i holatiga ko‘ra me’yorlangan holda yetkazib berilishi hamda sanitariya talablariga javob berishi ta’minlansin.

7. Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (F.Keldibekov), Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev), Soha infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (Q.Oqilov, H.Turaxodjaev), Davlat xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni muvofiqlashtirish bo‘limi (F.Kushnazarov), Maktabgacha ta’lim agentligi **2023-yil 1-apreldan boshlab** maktabgacha ta’lim qamrovini kengaytirish maqsadida:

yangi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini **ko‘p kvartirali uylarning noturar qavatlarida** yoki **yakka tartibda qurilgan uy-joylarni sotib olish** va keyinchalik ularni rekonstruksiya qilish, ta’mirlash hamda jihozlash orqali tashkil etishga ruxsat etilganligi;

davlat-xususiy sheriklik loyihasi doirasida ijaraga berilgan yer uchastkasida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti binosini qurgan xususiy sherikka ushbu binoni mazkur loyiha uchun **bank kreditlari bo‘yicha garovga qo‘yishga oid cheklovlar bekor qilinganligi inobatga olinsin.**

8. Soha infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (Q.Oqilov, H. Turaxodjaev), Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (F.Keldibekov) ta’lim muassasalarida bolalar va yoshlar uchun tavsiya etilmaydigan mahsulotlar, shu jumladan tarkibida shakar, tuz, transyog‘lar miqdori yuqori bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari, ta’m va rang beruvchi qo‘shimchalar ro‘yxatini **joriy yilning 1-apreliga qadar** tasdiqlasin va iste’molini kamaytirish bo‘yicha amaliy ishlarni olib borsin.

9. Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo‘limi (I.Xoldorova), Soha infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (Q.Oqilov) ish joylarida xodimlarning jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishi va sog‘lom ovqatlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratsin.

10. Soha infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (Q.Oqilov) budjet tashkilotlariga quyosh paneli va issiq suv kollektorini o‘rnatish majburiyati yuklatilganligi inobatga olinsin hamda 2026-yilga qadar ularning binolari energiya iste’molining 60 foizi “yashil energiya”ga bosqichma-bosqich o‘tkazish choralarini ko’rsin.

11. Tegishli mas’ul departament, boshqarma va bo‘lim boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalari har oyning 28-sanasiga qadar Davlat dasturi ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan

ishlar to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlar hamda ularing asoslantiruvchi hujjatlarini ilova qilgan holda muvofiqlashtiruvchi **Vazir o‘rinbosarlari bilan kelishib Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi** (Sh.Muxamedov)**ga** kiritsin.

12. Yuridik bo‘lim (X.Asrorov) Davlat dasturida nazarda tutilgan normativ- huquqiy hujjatlar loyihalarining sifatli va o‘z vaqtida ishlab chiqilishi hamda kelishilishida mas’ullarga amaliy yordam ko‘rsatib borsin.

13. Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi (Sh.Muxamedov) ma’lumotlarni tahlil qilgan holda umumlashtirilgan ma’lumotlarni har chorak yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasiga, har oy yakunida Adliya vazirligi, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi, “Yuksalish” umummilliy harakatiga kiritib borsin.

14. Vazir o‘rinbosarlari, departament, boshqarma va bo‘limlar boshliqlari, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar rahbarlariga Davlat dasturida belgilangan vazifalarni bajarishda shaxsiy javobgarlik yuklatilsin.

15. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash boshqarmasi (D.Sobirova) Davlat dasturiga kiritilgan tegishli tadbirlarning ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib borsin.

16. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda departament, boshqarma va bo‘limlar, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarga yetkazilishini ta’minlasin.

17. Vazir kotibiyati boshlig‘i buyruqdagi bandlarning ijrosini mas’ullar tomonidan o‘z vaqtida ta’minlanishini qat’iy nazoratga olsin.

18. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir| **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 6-mart,
43-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

2022-2023-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2022-2023-o‘quv yilida o‘quvchilarning yakuniy nazorat imtihonlarini tashkil etish va o‘tkazish maqsadida Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2022-2023-o‘quv yilida o‘quvchilarning yakuniy nazorat imtihonlarini tashkil etish va o‘tkazish maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qaroriga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlari 25-mayga qadar davom etishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

yakuniy nazorat imtihonlari o‘tkaziladigan fanlarning ro‘yxati va imtihon o‘tkazish shakllari 1-ilovaga muvofiq;

xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro tan olingan sertifikatlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining davlat ta’lim standartlari asosida egallashi lozim bo‘lgan malaka talablariga muvofiq bilimlarini sinovdan o‘tkazish maqsadida 9- va 11-sinflar uchun yakuniy (bitiruv) nazorat imtihonlari (keyingi o‘rinlarda - imtihonlar) 1-ilovada keltirilgan fanlardan tashkil etilsin.

4. 2022-2023-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining bosqichli nazorat imtihonlarini o‘tkazish bekor qilinsin.

5. Imtihonlar 2023-yil 26-maydan 15-iyungacha amalga oshirilsin (Jismoniy tarbiya fani bundan mustasno).

6. Belgilab qo‘yilsinki, umumta’lim fanini bilish darajasi to‘g‘risida davlat namunasidagi sertifikat hamda 2-ilovada keltirilgan chet tili fanlari bo‘yicha kamida B1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro tan olingan sertifikatga ega bo‘lgan o‘quvchilar imtihonidan muayyan fandan ozod qilinadi.

7. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 9-sinf o‘quvchilari uchun Jismoniy tarbiya fanidan imtihonlar 2023-yil 1-6-may kunlari malakali tibbiyot xodimlarining nazorati ostida o‘tkazilsin (jismoniy yoki

psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatlar hamda skolioz bilan kasallangan bolalar uchun sanatoriy turidagi maktab-internatlar bundan mustasno).

8. Ko‘zi ojiz, zaif ko‘ruvchi va tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda imtihonlar umumta’lim muassasalariga qo‘yilgan talablar asosida o‘tkazilsin (Jismoniy tarbiya fani bundan mustasno).

9. Kar, zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarida imtihonlar Ona tili va adabiyot fanidan bayon va Matematika fanidan yozma nazorat ishi shaklida amalga oshirilsin.

10. Aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda faqat Texnologiya fani bo‘yicha imtihonlar o‘tkazilsin hamda imtihonlarni o‘tkazish muddati maktabning Pedagogik kengashi tomonidan belgilansin.

11. Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov), Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E.Murodov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

imtihonlarga puxta tayyorgarlik ko‘rishlari uchun sharoitlar yaratish;

imtihonlarni shaffof, adolatli, xolis o‘tkazilishini ta’minlash;

imtihonlarning o‘z muddatlarida o‘tkazilishini nazoratga olish;

12. Tabiiy va texnogen sabablarga ko‘ra belgilangan muddatlarda imtihon o‘tkazilishining imkoniyati bo‘lmagan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida imtihonlarni tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari bilan kelishgan holda boshqa kunda o‘tkazishga ruxsat berilganligini ma’lumot va ijro uchun qabul qilish;

imtihonlarning natijalari, ularni o‘tkazish yuzasidan taklif va mulohazalarni umumlashtirib, 2023-yilning 3-iyuliga qadar Respublika ta’lim markaziga taqdim etish vazifalari topshirilsin.

13. Respublika ta’lim markaziga 2023-yilning 31-martiga qadar:

umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim beriladigan barcha tillarda imtihonlar o‘tkaziladigan fanlar bo‘yicha, shuningdek, ko‘zi ojiz, zaif ko‘ruvchi, kar, zaif eshituvchi hamda aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning bitiruvchi sinf o‘quvchilari uchun **namunaviy** imtihon materiallarini hamda baholash mezonlarini tayyorlash.

Bunda, umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun kreativ va mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar kiritilishi inobatga olinsin;

aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarning bitiruvchi sinflari o'quvchilari uchun Texnologiya fanidan imtihon o'tkazish bo'yicha tegishli tavsiya va mezonlar ishlab chiqish;

umumta'lim muassasalarida 2022-2023-o'quv yilini yakunlash, bitiruv sinflarida yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotni 2023-yil 1-avgustgacha Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamentiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

14. Axborot texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi (R.Musurmonov), Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash boshqarmasi (D.Sobirova) bilan birgalikda 2023-yil 1-aprelga qadar imtihon materiallarini vazirlikning rasmiy veb-sayti (uzedu.uz) va eduportal.uz axborot ta'lim portaliga joylashtirsin.

15. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 6-mart,
46-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Qishloq hududlarida xorijiy tillarni o‘qitish faoliyatini tashkil etish uchun nodavlat ta’lim tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq hududlarida xorijiy tillarni o‘qitish faoliyatini tashkil etish uchun nodavlat ta’lim tashkilotlarini qo‘llab-quvvatiash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 20-sentabrdagi 513-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son Farmoniga muvofiq 2023-yil 1-yanvardan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi vazifa va funksiyalari tegishincha Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi orasida taqsimlangan holda tugatilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son Farmoniga muvofiq yangi tashkil qilingan va qayta tashkil qilingan vazirlik va idoralar faoliyati tugatilgan yoki qayta tashkil qilingan vazirlik va idoralarning tegishli huquq va majburiyatlari bo‘yicha huquqiy vorisi etib belgilanganligi **ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin**.

2. Quyidagilar:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalaridan nodavlat ta’lim tashkilotlari tomonidan subsidiya olish uchun yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda - YIDXP) orqali kelib tushgan so‘rovnomalarni belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqish uchun mas’ul etib belgilangan xodimlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

Nodavlat ta’lim tashkilotlariga bir martalik subsidiya berish uchun Biznes rejani baholash mezonlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari Xorijiy tillarni

o‘rganishni ommalashtirish bo‘limlari boshliqlariga YIDXP orqali kelib tushgan so‘rovnomalarni belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqish va baholash bo‘yicha shaxsiy mas’uliyat yuklatilsin.

4. Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh. Temirova):

bir hafta muddatda tegishli vazirlik va idoralar tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalaridan mas’ul etib belgilangan xodimlar uchun so‘rovnomalarni baholash maqsadida YIDXPdan foydalanish huquqining taqdim etilishi choralarini ko‘rsin;

doimiy ravishda qishloq hududlarida xorijiy tillarni o‘qitish faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun nodavlat ta’lim tashkilotlariga bir martalik subsidiyalar ajratib borilishi jarayonini o‘z vakolati doirasida muvofiqlashtirib borsin.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari:

yil davomida kelib tushgan so‘rovnomalar va ularga ajratilgan subsidiyalarning yillik hisobini yuritsin va tahliliy hisobotlarni vazirlikka belgilangan muddatlarda kiritib borsin;

o‘tgan yilning xos davriga qadar ko‘rsatkichlarni inobatga olgan holda mahalliy hokimiyat organlariga 2024-yil va undan keyingi yillar uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti va viloyatlar mahalliy budjetlari parametrlari shakllantirilishida qishloq hududlarida xorijiy tillarni o‘qitish faoliyatini tashkil etish uchun nodavlat ta’lim tashkilotlariga bir martalik subsidiyalar ajratish maqsadida zarur mablag‘larni nazarda tutish uchun prognoz ma’lumotlarni kiritib borsin.

6. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash boshqarmasi boshlig‘i (D.Sobirova) qishloq hududlarida xorijiy tillarni o‘qitish faoliyatini tashkil etish uchun tadbirkorlik subyektlariga mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan bir martalik subsidiyalar

ajratilayotganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni vazirlikning ijtimoiy tarmoqlari va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilib borsin.

7. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni **bir kun muddatda** vazirlikning markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari hamda hududiy boshqarmalarga yetkazilishini ta’minlasin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari U.Begimqulov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 14-mart,
55-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari tuzilmasidagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i va fan metodistlarini tanlab olish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21-iyundagi 290-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, maktabgacha va maktab ta’limi tizimida o‘quv jarayonini metodik jihatdan yuqori bosqichga olib chiqish maqsadida **buyuraman:**

1. Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlarini malakali kadrlar bilan to‘ldirish maqsadida joriy yilning mart-aprel oylari davomida nomzodlar orasida tanlov tashkil etilsin.

2. Quyidagilar:

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlarini malakali, mas’uliyatli va tashabbuskor kadrlar bilan to‘ldirish bo‘yicha tanlov komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Apellyatsiya komissiyasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish bo‘yicha vaqtincha tartib 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi (R.Musurmonov) Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i va fan metodistligi lavozimiga nomzodlarning hujjatlarini maxsus platforma orqali qabul qilish jarayonlarini tashkil etish choralarini ko‘rsin.

4. Tanlov komissiyasi (U.Begimkulov):

Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i va fan metodistlarini tanlab olish jarayonini muvofiqlashtirib borish bo‘yicha Respublika ta’lim markazida tashkil etiladigan shtab ishlarini muvofiqlashtirib borish;

tanlov jarayonlarining har bir bosqichini o‘tkazish muddatlari bo‘yicha talabgorlarni o‘z vaqtida xabardor qilib borish;

ikki oy muddatda Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlariga Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i va fan

metodistlari lavozimlariga nomzodlarni ikki bosqichda *(fani bo‘yicha test va suhbat)* tanlab olish;

tanlov natijalari yuzasidan Tanlov komissiyasining bayonini rasmiylashtirish va rahbariyatga taklif kiritish;

Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash boshqarmasi (D.Sobirova) bilan birgalikda **uch kun muddatda** Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i va har bir fan bo‘yicha fan metodistlari lavozimiga ishga qabul qilish va natijalari bo‘yicha e’lon berish vazifalari yuklatilsin.

5. Respublika ta’lim markazi (Sh.Sattarov) Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari tuzilmasidagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlariga bo‘lim boshlig‘i va fan metodistlarini tanlab olish jarayonini muvofiqlashtirib borish bo‘yicha shtab tashkil etsin va jarayon bilan bog‘liq vazifalarni o‘z vaqtida sifatli bajarsin.

6. Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov)ga Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari tuzilmasidagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlariga bo‘lim boshlig‘i va fan metodisti lavozimlariga hujjat topshirgan nomzodlarni o‘zining fani va yo‘nalishidan kelib chiqqan holda onlayn test jarayonlarini sifatli tashkil etish vazifasi topshirilsin.

7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi faoliyatini muntazam ravishda muvofiqlashtirish;

Respublika ta’lim markazining tavsiyalari asosida Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limidagi fan metodistlarining samarali faoliyat olib borishlari uchun sharoitlar yaratish;

monitoring natijalariga ko‘ra ta’lim sifati yuqori bo‘lmagan umumiy o‘rta ta’lim maktablariga fanlar kesimida metodik yordam ko‘rsatish jarayonlarini tashkil etish;

tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlarining fan metodistlariga ajratilgan texnika vositalarini (*kompyuter, skaner, printer*) ehtiyojni o‘rgangan holda Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari balansiga o‘rnatilgan tartibda o‘tkazish va Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i va fan metodistlariga ish jarayonida foydalanish uchun berilishini tashkil etish;

tajribali fan o‘qituvchilari, shuningdek, shtati qisqartirilayotgan fan metodistlari uchun Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i va

fan metodisti lavozimlariga salohiyatli nomzodlarni tanlash maqsadida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish vazifalari yuklatilsin.

8. Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari rahbarlariga:

talabgorlarni tanlovda ishtirok etishlari uchun imkoniyatlar yaratish *(xona, kompyuter texnikasi, internet va boshqa);*

yangidan ish boshlaydigan Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi fan metodistlarini o‘zining yo‘nalishi bo‘yicha (*filologiya, xorijiy tillar, ijtimoiy, aniq, amaliy, tabiiy va iqtisodiy fanlar*) xonalarga joylashtirish, ularga sharoitlar (*internet, telefon aloqasi, stol, stul, shkaf va boshqa*) yaratish vazifalari topshirilsin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari U. Begimqulov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 15-mart,
61-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 15-martdagi
61-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlarini malakali, mas’uliyatli va tashabbuskor kadrlar bilan to‘ldirish bo‘yicha tanlov komissiyasi tarkibi

T/r	F.I.SH.	Lavozimi
1	U.Sh.Begimkulov	Vazir o‘rinbosari, komissiya raisi
2	D.A.Norboyeva	O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi boshlig’i, komissiya raisining o‘rinbosari
3	Z.F.Togayeva	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
4	N.Sh.Kuchkarova	Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
5	D.Ermatov	Ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig’i, a’zo
6	A.A.Nasirov	O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi boshlig‘i o’rinbosari, kotib;
7	S.A.Kazakova	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari, a’zo
8	Sh.Sh.Sattarov	Respublika ta’lim markazi direktori, a’zo
9	D.T.Davidova	Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi direktori, a’zo
10	M.D.Pardayeva	Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy tadqiqot instituti prorektori, a’zo
11	M.N.Xoldorov	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi bo‘lim boshlig‘i, a’zo
12	G.Tog‘ayeva	Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi bosh mutaxassisi, a’zo

13	Lavozimi bo‘yicha	Hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasining maktab ta’limi bo‘yicha o‘rinbosari
14	Lavozimi bo’yicha	Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi direktorlari
15	Lavozimi bo’yicha	Respublika ta’lim markazi fan metodistlari *(yo‘nalishi bo‘yicha*)
16	Lavozimi bo’yicha	Prezident maktabi direktorlari

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 15-martdagi
61-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

Apellyatsiya komissiyasi tarkibi

T/r	F.I.SH.	Lavozimi
1	D.Kenjayev	Vazir o‘rinbosari, apellyatsiya komissiyasi raisi
2	J.Shamshiyev	Korrupsiyaga qarshi kurash va huquqiy nazorat boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
3	A.Radjiyev	Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy tadqiqot instituti rektori
4	F.Urunov	O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, kotib
5	A.Baxromov	A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o’rgatish milliy tadqiqot instituti prorektori, a’zo
6	A.Ortikov	Respublika ta’lim markazi direktor o‘rinbosari, a’zo

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 15-martdagi
61-sonli buyrug‘iga
3-ILOVA

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlariga kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish bo‘yicha vaqtincha
TARTIB

Mazkur Tartib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son qaroriga asosan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda - Vazirlik) tizimidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi (keyingi o‘rinlarda - Milliy markaz) Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limiga bo‘lim boshlig‘i va fan metodisti lavozimiga tanlov o‘tkazish tartibini belgilaydi.

Tanlov Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limiga metodika yo‘nalishida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga, bu borada keng qamrovli islohotlarning amalga oshirilishida bevosita ko‘makchi bo‘lishga qodir, zamonaviy talablarga javob beruvchi yuqori malakali, tashabbuskor, keng dunyoqarash hamda yuqori ilmiy salohiyatga, chuqur kasbiy bilimga, xalqaro tajribalardan xabardor, yuksak axloqiy va ma’naviy fazilatlarga ega, ta’lim jarayonida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llagan holda zamonaviy metodikalarni o‘qituvchilarga etkazib bera oladigan ilg‘or fan metodistlari va bo‘lim boshliqlarini saralab olish maqsadida o‘tkaziladi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Tartib Vazirlik tizimidagi Milliy markazning Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limiga nisbatan tatbiq etiladi.

2. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlarida bo‘lim boshlig‘i va fan metodisti lavozimiga nomzodlar tanlov asosida ishga qabul qilinadi. Tanlov yangidan tashkil etilayotgan har bir fan bo‘yicha fan metodisti va bo‘lim boshlig‘i lavozimlariga e’lon qilinadi.

3. Tanlov mazkur Tartibga asosan tuziladigan Metodik xizmat

ko‘rsatish bo‘limining fan metodisti va bo‘lim boshlig‘i lavozimiga nomzodlarni tanlab olish bo‘yicha Tanlov komissiyasi (keyingi o‘rinlarda - Tanlov komissiyasi) tomonidan o‘tkaziladi.

4. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlarining bo‘lim boshlig‘i va fan metodisti lavozimi uchun o‘tkaziladigan tanlovda besh yildan kam bo‘lmagan pedagogik ish stajga hamda fan yo‘nalishiga to‘g‘ri keluvchi bakalavr darajasidagi oliy pedagogik ma’lumotga ega bo‘lgan mutaxassislar ishtirok etadi.

5. Nomzodlar tegishli hujjatlarini maxsus platforma orqali topshirgan holda ishtirok etadi.

6. Sud hukmi va tibbiy xizmat xulosasiga ko‘ra pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishi man etilgan, muomalaga layoqatsiz (muomala layoqati cheklangan), tibbiyot muassasalarida muayyan toifadagi kasalliklar bo‘yicha ro‘yxatda turgan shaxslar tanlovga qo‘yilmaydi.

2-bob. Tanlov o‘tkazishning asosiy vazifalari

7. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlarini yuqori malakali metodistlar bilan ta’minlash.

8. Bo‘lim boshlig‘i va fan metodisti lavozimiga munosib nomzodlarni tanlab olish hamda ularning potensial imkoniyatlaridan samarali foydalanishdan iborat.

3-bob. Tanlov o‘tkazishni tashkil etish

9. Tanlov ochiq bo‘lib, tenglik, shaffoflik, qonuniylik va adolat tamoyillari asosida o‘tkaziladi.

Milliy markazlar o‘tkazilayotgan tanlovning tashkilotchisi hisoblanadi.

